

**ATROF OLAM
FAOLIYAT
ISHLANMALARI**

KANUNVA

YOZ DAVRI

O'RTA GURUH



“TASDIQLAYMAN”

____-MTT direktori

Yoz davri o‘rta guruhlarga atrof olam faoliyatlari uchun ish reja

Hafta kunlari	Mavzu
IYUN	
1-hafta	Ekinzorga maqsadli sayr
2-hafta	Qum va suvning xususiyatlari bilan tanishtirish
3-hafta	Hasharotlar (qo‘ng‘iz va kapalak) bilan tanishtirish
4-hafta	Chumoli inini kuzatish
IYUL	
1-hafta	Sabzavot va mevalarni ko‘rib chiqish
2-hafta	Akvariumdagi baliqchani kuzatish
3-hafta	Jonsiz tabiat (qum va tosh) bilan tanishtirish
4-hafta	Xona o‘simliklari bizning do‘stimiz
AVGUST	
1-hafta	Boqqa sayr qilamiz
2-hafta	Yozgi daraxtlarni kuzatish
3-hafta	Qushlarni kuzatish
4-hafta	“Yozgi o‘yin kulgular” surati ustida suhbat

Ekinzorga maqsadli sayr

Maqsad: Ekinzorda nimalar o'sishi, qanday sabzovotlar palaklarda, shoxlarda o'sishi haqida tushincha berish. Sabzavotlarning poyasi, palagiga qarab ajrata bilish (sabzi, pomidor, lavlagi)

Kutilayotgan natija:

Ekinzorda nimalar o'sishi, qanday sabzovotlar palaklarda, shoxlarda o'sishi haqida tushincha ega bo'ladilar. Sabzavotlarni poyasi, palagiga qarab ajrata biladilar (sabzi, pomidor, lavlagi)

Faoliyatning borishi: Bolalar bizning polizimizda nimalar o'sadi? (Sabzavotlar) Sabzavotlar bizga nima uchun kerak?

Tarbiyachi: to'g'ri, sabzavotlarni biz ovqatlarga ishlatamiz. Kartoshka, piyoz, sabzi, karam, sholg'om, lavlagilardan ovqat qilamiz. Sabzavotlarning yaxshi o'sishlari uchun nima qilishimiz kerak? (Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: to'g'ri sabzavotlarni yaxshi o'sishi uchun ularni parvarishlash, tagini yumshatish kerak.

-Biz polizimizda qanday sabzavotlar tuproq tagida o'sadi? (Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: to'g'ri kartoshka, piyoz, sabzi, karam, sholg'om, lavlagi yer tagida o'sadi.

-Tuproqda qanday sabzavotlar poyalarda o'sadi? (Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: to'g'ri pomidor, baqlajon, qalampir poyalarda o'sadi.

-Polizda qanday sabzavotlar o'sadi? (Bolalar javoblari)

Tarbiyachi: to'g'ri piyoz, qovun o'sadi.

Kelinglar o'ynaymiz. Men sizlarga kartoshka, piyoz, sabzi, karam, sholg'om, lavlagining o'sishini to'g'ri tasvirlagan qovun palagi tasvirini beraman. Men tuproqda o'sadigan sabzavotlar degan so'zni eslatib, sizning oldimga kelish kerak? Men poyada o'sadigan sabzavotlar deganimda, kimlar mening oldimga kelish kerak? Men palakda o'sadigan sabzavotlar deganimda, kimlar mening oldimga kelish kerak? Kimning qo'lida qanday rasm bor bo'lsa, shu bolalar mening oldimga chaqirganimga kelish kerak.

Tarbiyachi o'yinda qatnashgan bolalarni qutqatib, faoliyatni yakunlaydi.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- Ekinzorda nimalar o'sganini ko'rsatib ber.
- Qanday sabzavotlar palaklarda o'sadi?
- Qanday sabzavotlar shoxlarda o'sadi?
- Qanday sabzavotlar yer tagida o'sadi?
- Biz qanday o'yin o'ynadik?



Qum va suvning xususiyatlari bilan tanishtirish.

Maqsad: Bolalarga qum, suv haqida tushunchalarini aniqlab, ularning xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini aniqlash, ularni solishtirishni o'rgatish, o'ziga xos xususiyatlari so'zlab berish.

Kutilayotgan natija:

Bolalarning qum, suv, ularning xususiyatlari to'g'risidagi bilimlari ortadi.

Interfaol usullar: shbat, tajriba, savol-javob,

Zarur jihozlar: qum va suv

Faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar, bu nima? To'g'ri, bu suv. Suvni biz nima qilamiz? Suvni ichamiz. Suvda cho'milamiz. Gullarga suv quyamiz. Suv bilan o'ynaymiz. Mana, tog'orada suv. Suvga o'yinchoqlar solib qo'ysak, mazza qilib o'ynaymiz.

Bu qum. Qum sochiluvchan. Qum bilan ham o'ynaymiz? Qumdan turli narsalar yasaymiz. Mana qarang. Tarbiyachi qumda turli narsalar yasab ko'rsatadi.

Demak, har narsa har xil. Suv-suyuqlik, suv to'kilsa, uni yig'ib bo'lmaydi, qum sochilsa uni yig'ib bo'lsa bo'ladi. (Tarbiyachi tajribada ko'rsatadi) Suv-suyuqlik, qum esa sochiluvchan.

Keling, o'ynaylik. Kimga suv kerak?" o'yinini o'ynaymiz.

Maqsad ko'rsataman, siz unga suv kerak deb o'ylasangiz chapak chalasiz. Tarbiyachi gullariga suv quyib ko'rsatadi. Bolalar chapak chaladilar. Tarbiyachi qo'yning rasmini ko'rsatadi. Bolalar chapak chalaydi. O'yin qariqa davom etadi.

Suhbatda bolalarning suv bilan o'ynab ko'rishga ruxsat beriladi.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- Qum qanday?
- Qum bilan qanday o'ynaymiz?
- Suv qanday ekan?
- Suvni biz nima qilamiz?
- Qanday o'yin o'ynadik?



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

+99891-328-88-38 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

O'rta guruhlariga yoz davri atrof olam faoliyat ishlanmalarini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.